O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD-60530200

2024 yil “10 03

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____R.I.Xalmuradov
2024 yil “__”_____

UMUMIY TABIIY GEOGRAFIYA

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta’lim sohasi:	530 000- Fizika va tabiiy fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60530200 – Geografiya

Samarqand-2024

Fan/modul kodi 1-sem.UTG1109 2-sem.UTG1209	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1-2	ECTS – Kreditlar 1-semestr – 5 2-semestr – 4	
Fan/modul turi Majburiy	**Ta'lim tili** O'zbek		**Haftadagi dars soatlari** 4	
1.	**Fan nomi**	**Auditoriya mashg'ulotlari (soat)**	**Mustaqil ta'lim (soat)**	**Jami (soat)**
	Umumiy tabiiy geografiya	68 56	82 64	150 120
2.	**I. Fanning mazmuni** **Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarga geografik qobiqning rivojlanishi, tuzilishi, bo'linishi, tarkibiy qismlari va ularning o'zaro ta'sirini o'rgatish, Yer haqida umumiy va dastlabki tabiiy geografik bilimlarni, Yerning yadrosi, mantiyasi, litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera haqida umumiy ma'lumotlar va ularda ro'y beradigan hodisalar, ularning xususiyatlari haqida bilimlar berishdan iborat. **Fanning vazifasi** – talabalarga umumiy tabiiy geografik qonuniyatlar, ularning mohiyati, geografik qobiqning tuzilishi, tarkibiy qismlari, litosfera, atmosfera, gidrosfera va biosfera hamda ularning xususiyatlari, geografik qobiqning hududiy tabaqalanishi, inson va tabiat munosabatlarining geografik asoslarini o'rgatish va ularda tabiatdan foydalanishda geografik bilimlarni qo'llay olish bo'yicha malaka va tajriba hosil qilishdan iborat.			

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	**"Umumiy tabiiy geografiya" fanining predmeti va vazifalari.** "Umumiy tabiiy geografiya" fanining tadqiqot ob'ekti, predmeti. Fanning maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi. O'quv fanining boshqa tabiiy fanlar bilan bog'liqligi. Geografik qobiq, xususiyatlari va qonuniyatlari.
M2	**Geografiya fanining rivojlanishini asosiy bosqichlari va davrlashtirish masalalari** Ilk geografik bilim kurtaklarining paydo bo'lishi. Antik davrda geografiyaning rivojlanishi. "Umumiy tabiiy geografiya" g'oyalarining Aristotel, Eratosfen, Ptolemey, Strabon ishlarida rivojlantirilishi. Geografiya fanining o'rta asrlarda rivojlanishi. Mazkur davrda geografiya fanining Sharq mamlkatlarida rivojlanishi (Xorazmiy, Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Bobur va boshqalar). Buyuk geografik kashfiyotlarning geografiya fanining rivojlanishidagi ahamiyati. XIX asrda ilmiy geografiyaning rivojlanishi. Geografiya fanining hozirgi paytda rivojlanishi. Geografik qobiq, biosfera, geografik muhit ta'limotlarining yaratilishi. O'zbekistonda tabiiy geografiya fanining rivojlanishi. Buyuk geografik kashfiyotlar davri. Buyuk geografik kashfiyotlarning geografiya fanining rivojlanishidagi ahamiyati. Dengiz yo'llarini ochilishi. Materiklarning kashf etilishi.

M3	**Umumiy tabiiy geografiyaning tadqiqot usullari** Umumgeografik usullar, ekspeditsiya, tasviriy, qiyosiy, o‘xshatish, tizimli, kartografik, tarixiy, aerokosmik usullar. Dala tadqiqot, laboratoriya, geokimyoviy, geofizik, geografik axborot tizimlari (GAT), modellashtirish, matematik usullar.
M4	**Koinot, Quyosh sistemasi va Yer** Koinot haqida asosiy tushunchalar: Olam, Metagalaktika, Galaktika, yulduzlar. Quyosh sistemasi va uning tuzilishi. Osmon jismlari va ularning turlari. Quyosh, sayyoralar, asteroidlar, meteorlar, meteoritlar, kometalar. Yerga fazoning ta’siri. Magnitosfera.
M5	**Sayyoralar** Sayyoralar. Sayyoralarning Quyosh sistemasida joylashuvi. Sayyoralarning shakli va o‘lchamlari. Tarkibi va tuzilishi.
M6	**Yerning shakli va o‘lchamlari** Ellipsoid yuza. Sathiy va Yerning tabiiy yuzalari. Geoid tushunchasi. Yerning shakli va harakatlari. Yerning o‘z o‘qi va Quyosh atrofida aylanishining geografik oqibatlari.
M7	**Geografik qobiq tarkibi va tuzilishi** Geografik qobiqning tarkibi: litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera. Geografik qobiqning umumiy tavsifi va asosiy xususiyatlari: moddalarning xilma-xilligi; nomuvozanatligi: tarkibining doimo murakkablashib borishi va h.k. Geografik qobiqdagi moddalarning kimyoviy va fizik xossalari. Geografik qobiqning tarkibiy qismlari.
M8	**Geografik qobiqning umumiy xususiyati va qonuniyatlari** Geografik qobiqning bir butunliligi, modda va energiya almashinuvi, zonallik va azonallik, davriy va nodavriy hodisalar. Geografik qobiqning rivojlanishi. Geosferalarning vujudga kelishi va rivojlanishi. Geografik qobiq tarkiblarining rivojlanishi. Geografik qobiq rivojlanishining asosiy bosqichlari. Yerda hayotning paydo bo‘lishi. Geografik qobiqning to‘rtlamchi davrda rivojlanishi. Yer yuzasi tabiati rivojlanishining asosiy qonuniyatlari.
M9	**Litosfera** Yer po‘sti. Yer po‘stining tarkibi. Yer po‘sti tuzilishining asosiy xususiyatlari. Yerning ichki tuzilishi. Litosfera plitalari, ularning harakati. Umumsayyoraviy relef shakllarining joylanishi.
M10	**Asosiy tog‘ hosil bo‘lish bosqichlari.** Geoxronologik jadval. Asosiy tog‘ bo‘lish bosqichlari. Baykal, kaledon, gersin, mezozoy, alp. Platformalar, geosinklinallar, qalqonlar, plitalar.
M11	**Yer yuzasining asosiy relef shakllari**. Yer yuzasi tuzilishning asosiy xususiyatlari. Yer yuzasida quruqlik va suvlikning taqsimlanishi. Qit’a va materik tushunchasi. Materiklar, orollar, yarim orollar. Relef hosil qiluvchi asosiy jarayonlar. Endogen (ichki) va ekozen (tashqi) kuchlar tushunchalari. Quruqlik yuzasidagi asosiy relef shakllari – tekislik, pasttekislik, adirlar, qirlar, platolar, tog‘ tizmalari, tog‘lik va yassi tog‘lik. Tog‘liklar va balandligiga ko‘ra turlari. Cho‘kma va botiqlar. Gipsografik egri chiziq.
M12	**Gidrosfera** Gidrosfera haqida umumiy tushuncha. Uning tarkibiy qismlari. Suvning tabiatda paydo bo‘lishi. Suvning yer yuzida taqsimlanishi. Suvning aylanma harakati, katta va

	kichik aylanma harakatlar.
M13	**Dunyo okeani va uning tarkibiy qismlari** Dunyo okeani va uning tarkibiy qismlari, dengizlar, bo‘g‘izlar, qo‘ltiqlar. Okean suvining xususiyatlari: harorati, sho‘rligi, zichligi, tiniqligi, bosimi. Suvning harakatlari, oqimlar. Okean tubi relefi. Suvosti tog‘ tizmalari, soylik (kotlovina) lar, suvosti cho‘kmalari(novlar). Batigrafik egri chiziq.
M14	**Quruqlikdagi suvlar: yer usti suvlari** Yer usti suvlari. Daryolar va ularning ishi. Ko‘llar va ularning turlari, tarqalishi. Xionosfera. Qor chizig‘i. Muzliklar va ularning ishi. Muzloqlar. Botqoqliklar.
M15	**Quruqlikdagi suvlar: yer osti suvlari** Yer osti suvlari, ularning turlari va tarqalishi. Mineral va termal suvlar. Artezian suvlari. To‘yinish manbalri. Yer yuzasiga ta’siri.
M16	**Atmosfera** Atmosfera tushunchasi. Atmosferaning tarkibi. Atmosfera qatlamlari – troposfera, stratosfera, mezosfera, termosfera (ionosfera), ekzosfera, ozon qatlami. Quyosh radiatsiyasining kelishi va taqsimlanishi. Havo harorati va uning dinamikasi.
M17	**Atmosfera harakatlari** Havo bosimi. Barik relef. Past va yuqori bosim markazlari, siklon va antitsiklon tushunchalari. Havo massalari va frontlari. Havo massalarining harakat turlari. Shamollar, uning turlari, mahalliy va sayyoraviy shamollar
M18	**Atmosferadagi namlik.** Bug‘lanish. Namlik. Nisbiy va mutloq namlik. Bulutlar, ularning turlari. Yog‘inlar – yomg‘ir, qor, do‘l, shudring, tuman.
M19	**Ob-havo va iqlim. Iqlim mintaqalari va tiplari** Ob-havo haqida tushuncha. Ob-havo va uning elementlari. O‘rganish usullari. Atmosfera bosimi va mintaqalari. Iqlim. Iqlim hosil qiluvchi omillar va jarayonlar. Iqlimning vertikal va gorizontal o‘zgarishlari. Quyosh radiatsiyasi va uning yer yuzasida taqsimlanishi. Iqlim tiplari. Kontinental, dengiz, oraliq va musson. Yer shari iqlim mintaqalari va issiqlik mintaqalari.
M20	**Biosfera** Biosfera va uning tuzilishi. Yerda hayotning paydo bo‘lishi. Biosfera haqida ta’limot. Hayotning tarqalish chegarasi. Organizmlarning turlari va ularning vazifasi (faoliyat). Ekologiya, ekologik holat (vaziyat), tabiatni muhofaza qilish tushunchalari. Ekologik omillar (abiotik va biotik). Biotsenoz, fitotsenoz, zootsenoz, biogeotsenoz. O‘simliklarning tekislik va balandliklar bo‘yicha tarqalishi. Okeanlarning organik dunyosi (plankton, nekton, bentos). Biomassa.
M21	**Yer shari tirik organizmlari va ularning turlari** Tirik organizmlar evolyutsiyasi. Tirik organizmlar va ularning turlari. Oddiy va murakkab organizmlar. Quruqlik organizmlari. Suvli muhit organizmlari. Yer sharida tirik organizmlarning gorizontal va vertikal tarqalishi. Faunistik va floristik oblastlar. Oblastlar. Podoblastlar.
M22	**Geografik landshaft** Landshaft haqida tushuncha. Landshaft haqida ta’limot va qarashlar. Landshaftning morfologik birliklari. Landshaftlar dinamikasi va evolyutsiyasi. Landshaftda moddalar migratsiyasi. Tabiiy va antropogen landshaft.

M23	**Geografik qobiqning gorizontal tuzilishi. Zonallik va azonallik.** Geografik qobiqni gorizontal yo‘nalishda tabaqalanishning omillari. Yer yuzasi tuzilishining asosiy xususiyatlari, gipsografik egri chiziq. Mintaqaviy – zonal tuzilmalar. Issiqlik va iqlim mintaqalari. Zonallikni yer sharida namoyon bo‘lishi. Landshaft tuzilmalari. Azonallik. Azonallikni vujudga keltiruvchi omillar. Zonallik qonuniyatining buzilishi. Barerlik, provinsiallik, sektorlik, dengiz va kontinental spektrlik. Landshaftlarning balandlik tabaqalanishi. Tabiat komponentlari va ularning turlari. Tabiat komponentlarining zonal o‘zgarishi. Yer shari tabiat zonalari va ularning geografik tarqalishi. Iqlim mintaqalari.
M24	**Nurash va uning turlari** Nurash qobig‘i. Pedosfera. Nurash qatlami va uning inson hayotida tutgan o‘rni. Nurashning turlari, ularning yer yuzi bo‘yicha tarqalishi. Nurashni vujudga keltiruvchi omillar. Tog‘ jinslarining umumiy fizik va kimyoviy xossalari.
M25	**Tuproqlar geografiyasi** Tuproq haqida tushuncha. Tuproq tarkibi va tuzilishi. Tuproq hosil qiluvchi omillar. Tuproqning fizik va kimyoviy xususiyatlari. Tuproqlarning zonal va vertikal tabaqalanishi. O‘zbekiston tuproqlari va ulardan foydalanishning ekologik jihatlari.
M26	**Tabiiy resurslar va ularni tasniflash** Tabiiy resurs. Uning turlari va geografik taqsimlanishi. Tabiiy resurslarni tasniflash. Tabiatdan foylalanishning geografik asoslari. Tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish muammolari. Geografik qobiqning inson tomonidan o‘zgarishi. Jamiyat va tabiatning o‘zaro ta’siri. Inson-tabiatdagi yangi kuch. Geografik muhit haqida tushuncha. Hozirgi ilmiy-texnik jadallashtirish va uning geografik qobiqqa ta’siri. Issiqlik oqimlarini boshqarishning asoslari.
M27	**Tabiiy geografik rayonlashtirish** Tabiiy geografik rayonlashtirish haqida tushuncha. Tabiiy geografik rayonlashtirishning asosiy tamoyil(prinsip)lari. Taksonomik birliklar haqida tushuncha. O`zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish tarixi va muammolari.
M28	**Global va regional ekologik muammolar** Ekologik muammolar va ularni turlari. Ekologik muammolarni vujudga keltiruvchi omillar. Cho‘llanish va turlari. Iqlim o‘zgarishi. Atmosfera havosini ifloslanishi. Tuproq va o‘simliklar degradatsiyasi. Sho‘rlanish. Orol dengizi qurishining sabablari. Orol dengizi qurishi natijasida ekologik holatning keskinlashuv. Orol muammosini tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. Orol muammosiga Respublika va Xalqaro miqyosdagi e’tibor.
III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar: Amaliy (A) Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.	
A1	Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi chizmasi
A2	Geografiya fanining rivojlanishini xronologik bosqichlari jadvalini tuzish
A3	Buyuk geografik kashfiyotlar xaritasini chizish. 3 ta yo’nalishni taqqoslash
A4	Quyosh sistemasi va Yer sayyorasining umumiy ta’rifiga oid jadval tuzish va o‘rganish.
A5	Gradus to‘ri va uning elementlari, geografik koordinatalar ustida mashq va masalalar

	yechish
A6	Geoxronologik jadvalni chizish va era, davrlarni taqqoslab SWOT tahlil o'tkazish.
A7	Yer yuzasining gipsografik va batigrafik egri chiziqlarini chizish.
A8	Orollar va arxipelaglarni yozuvsiz kartaga tushirish
A9	Yerning ichki tuzilishi sxemasi. Yer yuzasining tektonik tuzilishi xaritasini tuzish va uning tahlili.
A10	Yer po'sti va uni hosil qilgan qatlamlar sxemasi. Yer yuzasi relefi xaritasi va uning tahlili
A11	Yer sharidagi tog` tizmalarini yozuvsiz xaritaga tushurish va cho'qqilarni balandligi bilan ko'rsatish.
A12	Yer sharidagi vulqonlarni yozuvsiz kartaga tushirish
A13	Berilgan yo'nalish bo'yicha relef profilini tuzish.
A14	Okean suvining xususiyatlari: tiniqligi, sho'rligi va harorati
A15	Dunyo okeani qismlarini yozuvsiz kartaga tushirish
A16	Yer shari daryolarini yozuvsiz kartaga tushirish
A17	Yer shari ko'llarini yozuvsiz kartaga tushirish
A18	Atmosferani vertikal tuzilishi
A19	Ob-havo elementlarini o'lchash.
A20	Iqlim mintaqalarini yozuvsiz kartaga tushirish
A21	Atmosfera bosimi va havo massalari.
A22	Shamol guli va uni chizish
A23	Yer yuzida tuproqlarning tarqalish xaritasini chizish.
A24	Geografik mintaqalar va tabiat zonalari xaritasini ishlash.
A25	Biosfera. Yerda hayotning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
A26	Yer shari o'simlik va hayvonot dunyosining geografik tarqalishi
A27	Tabiatda modda va energiyaning aylanma harakati
A28	Inson va geografik muhit.
A29	Yer yuzida aholining tarqalishi. Irqlar.
A30	Tabiiy resurslar va ularning tasniflash.
A31	Energiya, oziq-ovqat, chuchuk suv, xom ashyo muammolari.
A32	Suv resurslari, muhofazasi va ulardan samarali foydalanish masalalari.
A33	Tuproqlar klassifikatsiyasi.
A34	Dunyoning ekologik kartasini tahlili.
A35	Alohida muhofaza etiladigan hududlarga ekskursiya

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Umumiy tabiiy geografiya" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Tabiiy geografik tadqiqotlarning zamonaviy metodlari(Eyler –Venn diagrammasi orqali an'anaviy va zamonaviy tadqiqot metodlarini taqqoslash, zamonaviy metodlarning afzalliklarini ko'rsatish).
2.	Yer sayyorasi va uning evolyusiyasi.(materiklarning gorizontal siljishi gipotezasi chizmalarini chizish, Ko'priklar bo'lganligi gipotezasi, rotatsion nazariyalarni

	taqqoslash).
3.	Materiklarni ichki qismlarini tadqiq etilishi
4.	Zilzila. Yer shari seysmik mintaqalari
5.	Tabiatda modda va energiyaning almshinuvi
6.	Tog'li o'lkalarning gorizontal parchalanishi. Tog' sistemalarining joylanish qonuniyatlari
7.	Muzliklar. O'rta Osiyo muzliklari
8.	O'rta Osiyo landshaftlarini zonal va vertikal tabaqalanishi
9.	Atrof-muhit monitoringi
10.	Geografik bashorat
11.	Karst jarayoni
12.	Global iqlim o'zgarishi va moslashuv

"Umumiy tabiiy geografiya" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, Yer sayyorasi va uning evolyusiyasi, geografik tadqiqotlar, geografik qobiqda sodir bo'ladigan tabiiy geografik jarayonlar, tabiiy resurslar va ularni boshqarish, Global iqlim o'zgarishi sabablari va moslashuv haqida talabada bilim ko'nikmasini shakllantirish e'tiborga olingan. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

V. Kurs ishi mavzulari

Kurs ishi uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Umumiy tabiiy geografiya" fani bo'yicha kurs ishlarining kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Tabiiy geografiyaning tadqiqot usullari
2.	Geografik qobiqning tuzilishi.
3.	Yer po'sti va uning tuzilishi.
4.	Yerda hayotning paydo bo'lishi va tarqalishi.
5.	Geografik qobiqning zonalligi va azonalligining sabablari va oqibatlari.
6.	Yerdagi hodisa va jarayonlarning davriyligi.
7.	Yer va sayyoralarning paydo bo'lishi haqida nazariyalar.
8.	Atmosfera harakatlari va ularnig turlari.
9.	Oqimlar va ularning landshaftlarga ta'siri.
10.	Geografik qobiqda moddalarning aylanma harakati.
11.	Tabiatda texnogen o'zgarishlarning ijobiy va salbiy tomonlari.
12.	Yer sharining harakatlari va ularning geografik oqibatlari.
13.	Yer sharsimonligining geografik oqibatlari.
14.	O'rta Osiyoda geografiyaning rivojlanish tarixi
15.	Buyuk geografik kashfiyotlar davri.
16.	Yerning ichki tuzilishi.
17.	Tektonik harakatlar.

18.	Zilzila va vulqonlar.
19.	Gidrosfera va uning tarkibiy qismlari.
20.	Dunyo okeani va uning qismlari.
21.	Quruqlikdagi suvlar.
22.	Daryolar va ularning geografik ishi.
23.	Ko‘llar va ularning turlari.
24.	Atmosfera.
25.	Ob-havo va iqlim.
26.	Iqlim mintaqalari va tiplari.
27.	Havo massalari va havo frontlari.
28.	Atmosfera yog‘inlari va geografik tarqalishi
29.	Biosfera.
30.	Yer yuzida tirik organizmlarning geografik tarqalishi.
31.	Ekologik muammolar.
32.	Yer yuzida aholining tarqalishi. Irqlar

“Umumiy tabiiy geografiya” fani bo‘yicha kurs ishi mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko‘nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Umumiy tabiiy geografiya o‘quv fani bo‘yicha kurs ishini tayyorlashda quyidagi vazifalarni hal etish nazarda tutiladi: - fanning dolzarb nazariy masalalari bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish, talaba tomonidan mavzuga oid olingan nazariy bilimlarni ijodiy qo‘llash ko‘nikmasini hosil qilish; - geografiya sohasida xorij tajribalarini, mavjud sharoitlarda ularni amaliy jihatdan qo‘llash imkoniyatlari va muammolarini o‘zlashtirish; - tanlangan mavzu bo‘yicha har xil manbalarni (monografiya, davriy nashrlardagi ilmiy maqolalar va shu kabilarni) o‘rganish qobiliyatini takomillashtirish va ularning natijalari asosida tanqidiy yondashgan tarzda mustaqil holda materialni ifoda etish, ishonchli xulosa va takliflar qilish; - matn va kartografik ko‘rinishdagi ishlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish va boshqalar.

3.	**VI. Fan o’qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o’zlashtirish natijasida talaba: • “Umumiy tabiiy geografiya” fanining tadqiqot ob’ekti, predmeti tadqiqot usullari; koinot, Quyosh sistemasi, Yer va uning Quyosh sistemasidagi o‘rni; geografik qobiq, uning umumiy tavsifi va asosiy xususiyatlari hamda tarkibiy qismlari; litosfera, yer yuzasi tuzilishning asosiy xususiyatlari; quruqlik yuzasidagi asosiy relef shakllari; gidrosfera va uning tarkibiy qismlari; okean suvining xususiyatlari va suvning harakatlari; quruqlikdagi suvlar; atmosfera, uning tarkibi va qatlamlari; radiatsiya balansi; havo bosimi, havo massalari va frontlari; past va yuqori bosim markazlari, siklon va antitsiklon; biosfera, hayotning tarqalish chegerasi, organizmlar turlari; o‘simlik va tuproq turlari, tarqalishi; geografik qobiqning gorizontal tuzilishi, geografik muhit va inson munosabatlariga oid nazariy qarashlar ***haqida tasavvur va bilimga ega***

	bo'lishi; • geografiya fanining rivojlanishini davrlashtirish; Yerning o‘z o‘qi va Quyosh atrofida aylanishi hamda ularning geografik oqibatlarini tajribada ko‘rsatib bera olish; relef hosil qiluvchi asosiy jarayonlar va relefning asosiy shakllari; gipsografik egri chiziq va undan foydalanish; Dunyo okeanining tarkibiy qismlari va ularni xaritadan topa olish; batigrafik egri chiziq va undan foydalanish; qoplama muzliklar va ular hosil qilgan relef shakllarini tushuntirish; tog‘ jinslarini ajrata olish; shamollar hosil qilgan relef shakllarini ajrata olish va boshqa relef shakllaridan farqlay olish; ob-havo va uning elementlarini o‘lchash asboblaridan foydalana olish; ob-havo va iqlimiy jarayonlarni kuzatib borish; iqlim mintaqalari va issiqlik mintaqalarini xaritadan ko‘rsata olish va tavsiflash; tuproq, o‘simlik va hayvonot olami turlarini amalda ajrata olish; atrof-muhit monitoringi olib borish; tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha xulosalar olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** • Umumiy tabiiy geografiyaning tadqiqot usullarini; Yer va uning asosiy o‘lchamlari: og‘irligi, shakli, o‘lchamlarini; Yerning o‘z o‘qi va Quyosh atrofida aylanishining geografik oqibatlarini; geografik qobiqning tarkibiy qismlarini va vertikal tuzilishini; asosiy tog‘ bo‘lish bosqichlarini; relef hosil qiluvchi asosiy jarayonlarni; Dunyo okeani va uning tarkibiy qismlarini; okean suvining xususiyatlarini; shamollar, mahalliy va sayyoraviy shamollarni; radiatsiya balansini; atmosferadagi suv bug‘i hamda nisbiy va mutloq namlikni; bulutlar, yog‘inlarning turlarini; ob-havo va uning elementlarini; iqlim hosil qiluvchi omillarni; iqlim mintaqalari va issiqlik mintaqalarini; tuproq va o‘simliklarning tekislik va balandliklar bo‘yicha tarqalishini; geografik qobiqning rivojlanishi qonuniyatlarini; tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan foydalana olishi ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • munozara, • o‘z-o‘zini nazorat. • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • SWOT • Ko‘chma dars mashg‘ulotlari
5.	**VIII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6.Asosiy adabiyotlar:

1. Abdunazarov O`.Q., Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M. Umumiy tabiiy geografiya. – Toshkent, Barkamol fayz media nashriyoti. 2018. 328 b.
2. Vahobov H. Umumiy Yer bilimi. Darslik. –Toshkent: Bilim, 2005.
3. Калесник С.В. Умумий Ер билими қисқа курси. -Т.: 1966. -300 б.

4. Шубаев Л.П. Умумий ер билими. –Тошкент: Ўқитувчи, 1975.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Ibragimova R., Mirakmalov M.T. Yer bilimi asoslari. –Toshkent, 2017.
2. Alibekov L.A. Inson va tabiat. –Samarqand, SamDU nashriyoti, 2020.
3. Аббасов С.Б.Чўлланиш муаммолари. Ўқув қўлланма. Самарканд. СамДУ нашриёти, 2019.
4. Баратов П., Маматкулов М., Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. -Тошкент.: Ўқитувчи, 2002.
5. Боков В.А., Селиверстов Ю.П., Черванов И.Г. Общее землеведение.- СПб., 1999.
6. Гадоев К., Бердиева С. Жаҳонгашта сайёҳ-олимлар. -Тошкент.: Ўзбекистон нашриёти, 2011.
7. Рафиқов А. Геоэкологик муаммолар. –Тошкент, 1997.
8. Zokirov Sh.S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. -Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016.
9. Toshmuxamedov B.T. Umumiy geologiya. Darslik. -T.:Noshir, 2011. -328 b.
10. Ҳикматов F.X., Сирлибоева З.С., Айтбаев Д.П. Кўллар ва сув омборлари географияси, гидрологик хусусиятлари. – Toshkent: Университет, 2000.
11. Gulomov P.N. Inson va tabiat. Toshkent, 2009.
12. Мильков Ф.Н. Общее землеведение. -М.: Высшая школа, 1990.
13. Goudie A. Physische Geographie. Germany,1997.

www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
www.undp.uz
www.ziyonet.uz
www.geogr/msu.ru

7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgustdagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** Eshquvvatov B.B. - SamDU Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasi dotsenti, g.f.f.d. Fozilov A.S.- SamDU Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasi dotsenti v.b., g.f.f.d.
9.	**Taqrizchilar:** Abbasov S.B.–SamDU Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasi professori, g.f.d. Alimkulov N. – Nizomiy nomidagi TDPU "Geografiya va uni o' 'qitish metodikasi" kafedrasi professori v.b. g.f.d., (DSc).

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:
Rais – Xaydarov S.A.

Kafedra mudiri: **B.B.Eshquvvatov**

Fakultet dekani: **S.B.Abbasov**

Sh. Rashidov nomidagi
SamDU O'quv ishlari bo'yicha
1-prorektor: **A.S. Soleyev**

Sh.Rashidov nomidagi SamDU "Geografiya va tabiiy resurslar" kafedrasi professor-o'qituvchilari B.B.Eshquvvatov va A.S.Fozilovlar tomondan yozilgan "Umumiy tabiiy geografiya" fanining fan dasturiga

TAQRIZ

"Umumiy tabiiy geografiya" fani geografiya mutaxassislarini tayyorlashda asosiy fundamental fanlardan biri hisoblanadi. Chunki, geografik qobiqdagi barcha jarayon va hodisalarda inson faoliyati yaqqol sezilib, o'zining ta'siri va ko'lami darajalariga ko'ra tabiatdagi yetakchi kuchlardan biriga aylanib bormoqda. Yer yuzasidagi geografik qobiq va uning tarkibidagi atmosfera, gidrosfera, litosfera va biosfera to'g'risidagi bilimlar bo'ljak geografларning asosiy bilim manbai bo'lib hisoblanadi.

Fan dasturida "Umumiy tabiiy geografiya" faniga oid umumiy nazariy tushunchalar bilan birga geografiya fanining rivojlanishining asosiy bosqichlari va davrlashtirish, tadqiqot usullari, geografik qobiqning umumiy xususiyati va qonuniyatlari, litosfera (Yer po'sti va tarkibi, yer po'sti tuzilishining asosiy xususiyatlari, geoxronologik jadval, asosiy tog' bo'lish bosqichlari, yer yuzasining asosiy relef shakllari), Gidrosfera (Dunyo okeani va uning tarkibiy qismlari, Quruqlikdagi suvlar: yer usti va yer osti suvlari), Atmosfera (atmosfera harakatlari, ob-havo va iqlim, iqlim mintaqalari va tiplari), Biosfera (Yer shari tirik organizmlari va ularning turlari, geografik landshaft, geografik qobiqning gorizontal tuzilishi, nurash va uning turlari, tuproqlar geografiyasi, tabiiy resurslar va ularni tasniflash, tabiiy geografik rayonlashtirish, global va regional ekologik muammolar) hamda tabiiy resurslarning alohida turlariga ta'rif berilayotganda ularning tabiat va jamiyat hayotidagi ahamiyati, zahiralari, tarqalishi, foydalanish oqibatida vujudga kelgan geoekologik muammolar va ularning yechimi bo'yicha mavzulari talabalarga mantiqan to'g'ri va tushunarli tarzda ochib berishga qaratilgan.

Bundan tashqari talabalar ushbu fanni o'zlashtirish davrida an'anaviy bilim berish usullari bilan bir qatorda yangicha pedagogik texnologiyalarni qo'llash natijasida ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadilar va yangicha malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Mazkur fan bo'yicha dasturda ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari rejalashtirilgan bo'lib, ushbu o'quv dasturi hozirgi zamon talablari asosida, ularni berilayotgan bilimlar bilan mujassam holda yaxshi ishlab chiqilgan.

Umuman fan dasturining talablarida "Umumiy tabiiy geografiya" faniga oid tushunchalarning mazmun-mohiyatini shakllantirishda Oliy o'quv yurtlarining 60530200 – Geografiya bakalavriat ta'lim yo'nalishining talabalariga mo'ljallangan. Fan dasturi malaka talablari asosida yozilgan, o'quv rejalariga to'liq mos keladi va uni nashr etishga loyiq deb hisoblayman.

Nizomiy nomidagi TDPU
"Geografiya va uni o' 'qitish metodikasi"
kafedrasi professorii v.b. g.f.d., (DSc). **N.R.Alimkulov**

TABIIY FANLAR FAKULTETI

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Geografiya va tabiiy resurslar" kafedrasi professor-o'qituvchilari B.B.Eshquvvatov va A.S.Fozilovlar tomondan tuzilgan "Umumiy tabiiy geografiya" fanining fan dasturiga

TAQRIZ

Bugungi kunda geografiya mutaxassislarini tayyorlashda "Umumiy tabiiy geografiya" fani asosiy fundamental fanlardan biri hisoblanadi. Chunki, tabiiy geografiyani obekti bo'lgan geografik qobiqdagi barcha jarayon va hodisalarda inson faoliyati yaqqol sezilib, o'zining ta'siri va ko'lami darajalariga ko'ra tabiatdagi yetakchi kuchlardan biriga aylanib bormoqda. Yer yuzasidagi geografik qobiq va uning tarkibidagi atmosfera, gidrosfera, litosfera va biosfera to'g'risidagi bilimlar bo'lajak geografларning asosiy bilim manbai bo'lib hisoblanadi.

Fan dasturida "Umumiy tabiiy geografiya" faniga oid umumiy nazariy tushunchalar bilan birga geografiya fanining rivojlanishining asosiy bosqichlari va davrlashtirish, tadqiqot usullari, geografik qobiqning umumiy xususiyati va qonuniyatlari, litosfera, yer po'sti tuzilishining asosiy xususiyatlari, geoxronologik jadval, asosiy tog' bo'lish bosqichlari, yer yuzasining asosiy relef shakllari, Gidrosfera, Dunyo okeani va uning tarkibiy qismlari, quruqlikdagi suvlar: yer usti va yer osti suvlari, Atmosfera atmosfera harakatlari, ob-havo va iqlim, iqlim mintaqalari va tiplari, Biosfera, Yer shari tirik organizmlari va ularning turlari, geografik landshaft, geografik qobiqning gorizontal tuzilishi, nurash va uning turlari, tuproqlar geografiyasi, tabiiy resurslar va ularni tasniflash, tabiiy geografik rayonlashtirish, global va regional ekologik muammolar hamda tabiiy resurslarning alohida turlariga ta'rif berilayotganda ularning tabiat va jamiyat hayotidagi ahamiyati, zahiralari, tarqalishi, foydalanish oqibatida vujudga kelgan geoekologik muammolar va ularning yechimi bo'yicha mavzulari talabalarga mantiqan to'g'ri va tushunarli tarzda ochib berishga qaratilgan. Bundan tashqari talabalar ushbu fanni o'zlashtirish davrida an'anaviy bilim berish usullari bilan bir qatorda yangicha pedagogik texnologiyalarni qo'llash natijasida ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadilar va yangicha malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Mazkur fan bo'yicha dasturda ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari rejalashtirilgan bo'lib, ushbu o'quv dasturi hozirgi zamon talablari asosida, ularni berilayotgan bilimlar bilan mujassam holda yaxshi ishlab chiqilgan.

Umuman fan dasturining talablarida "Umumiy tabiiy geografiya" faniga oid tushunchalarning mazmun-mohiyatini shakllantirishda Oliy o'quv yurtlarining 60530200 – Geografiya bakalavriat ta'lim yo'nalishining talabalariga mo'ljallangan. Fan dasturi malaka talablari asosida yozilgan, o'quv rejalariga to'liq mos keladi va uni nashr etishga loyiq deb hisoblayman.

Sh.Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
"Geografiya va tabiiy resurslar"
kafedrasi professori, g.f.d.: **Abbasov S.B.**